

## **Factors Influencing the Socio-Political Activity of Women**

**Erejepova Sayora Tileumuratovna**

Master's Student, Sociology Program, Faculty of Social Sciences National University  
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

### **Abstract**

This article analyzes the factors influencing women's socio-political participation. The study is based on sociological and political science approaches. Social, economic, educational and institutional determinants affecting women's participation in political processes are examined. The results indicate that education level, economic independence, gender equality policies and the activity of social institutions play an important role in strengthening women's socio-political engagement.

**Keywords:** women, political activity, gender equality, social institutions, political participation.

### **XOTIN-QIZLAR IJTIMOY-SIYOSIY FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR**

**Erejepova Sayora Tileumuratovna**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti  
Sotsiologiya yo'nalishi magistrant

### **Annotatsiya**

Ushbu ilmiy maqolada xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sotsiologik va siyosatshunoslik yondashuvlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ayollarning jamiyat hayotidagi siyosiy ishtiroki darajasiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy, iqtisodiy, ta'limiy, madaniy va institutsional omillar kompleks ravishda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xalqaro va mahalliy olimlarning nazariy qarashlari hamda empirik tadqiqotlari asosida xotin-qizlar faolligini shakllantiruvchi omillar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim darajasi, iqtisodiy mustaqillik, gender

tengligi siyosati, ijtimoiy institutlar faoliyati va madaniy stereotiplarning o'zgarishi ayollarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishida muhim rol o'ynaydi.

**Kalit so'zlar:** xotin-qizlar, siyosiy faollik, gender tengligi, ijtimoiy institutlar, siyosiy ishtirok.

Hozirgi zamonaviy jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi faolligi demokratik rivojlanishning muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida ayollarning davlat boshqaruvi, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatidagi ishtiroki nafaqat gender tengligini ta'minlash, balki jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi. Shu bois xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalasi bugungi kunda ko'plab davlatlarning ijtimoiy siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. So'nggi o'n yilliklarda dunyo miqyosida gender tengligi va ayollarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan islohotlar sezilarli darajada kuchaydi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollarning siyosiy hayotdagi faol ishtiroki jamiyatda ijtimoiy adolat, barqarorlik va samarali boshqaruv tizimini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ayollarning siyosiy jarayonlarda ishtirokini ta'minlash masalasi nafaqat gender tengligi, balki jamiyat rivojlanishining muhim strategik omili sifatida ham qaralmoqda. Sotsiologiya va siyosatshunoslik fanlarida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini o'rganish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar bu jarayonni turli omillar – ta'lim darajasi, iqtisodiy imkoniyatlar, madaniy qadriyatlar, siyosiy institutlar faoliyati va ijtimoiy stereotiplar bilan bog'liq holda tahlil qiladilar. Ilmiy adabiyotlarda ayollarning siyosiy faolligi ko'p omilli ijtimoiy jarayon sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda davlat siyosati va institutsional mexanizmlarning ham xotin-qizlar faolligini oshirishdagi roli alohida e'tirof etiladi. Ko'plab mamlakatlarda gender

tengligini ta'minlash, ayollarning siyosiy vakillik darajasini oshirish hamda ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan turli mexanizmlar joriy etilgan. Bunday chora-tadbirlar ayollarning siyosiy hayotdagi o'rnini mustahkamlash bilan birga, jamiyatda teng imkoniyatlar tizimini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi faqat siyosiy institutlar bilan cheklanib qolmaydi. U ijtimoiy ong, madaniy qadriyatlar, ta'lim tizimi, iqtisodiy imkoniyatlar va fuqarolik jamiyati institutlari bilan chambarchas bog'liq murakkab ijtimoiy jarayon hisoblanadi. Shu sababli mazkur masalani kompleks yondashuv asosida o'rganish, xotin-qizlar faolligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida ayollarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini shakllantiruvchi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va institutsional omillar ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi hamda ushbu jarayonning jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati ochib beriladi. Hozirgi zamonaviy jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi ishtiroki demokratik taraqqiyotning muhim mezonlaridan biri sifatida baholanmoqda. Globallashuv, axborotlashuv va ijtimoiy transformatsiya jarayonlari sharoitida jamiyatning barqaror rivojlanishi fuqarolarning teng huquqli va faol ishtirokiga tayanadi. Bu jarayonda ayollarning siyosiy qarorlar qabul qilish tizimidagi ishtiroki, davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnini hamda fuqarolik jamiyati institutlaridagi faolligi alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ilmiy qarashlarga ko'ra, gender tengligi ta'minlangan jamiyatlarda siyosiy barqarorlik, ijtimoiy adolat va iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari yuqoriroq bo'ladi [1]. So'nggi o'n yilliklarda xotin-qizlarning siyosiy ishtirokini kengaytirish masalasi xalqaro miqyosda dolzarb muammoga aylandi. "Ayollarning siyosiy vakilligi nafaqat tenglik tamoyilining amaliy ifodasi, balki boshqaruv sifatini oshirish omili sifatida ham talqin qilinmoqda.

Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, ayollarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki ijtimoiy siyosatning yanada inklyuziv va ijtimoiy yo'naltirilgan bo'lishiga xizmat qiladi"[2]. Shu bois xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini ilmiy jihatdan tahlil qilish sotsiologiya, siyosatshunoslik va gender tadqiqotlarining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ayrim jamiyatlarda tarixiy-an'anaviy qarashlar va gender stereotiplari ayollarning siyosiy yetakchilikka intilishiga to'sqinlik qilishi mumkin [3]. Shuningdek, institutsional mexanizmlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi yoki samarali ishlamasligi ham ayollarning siyosiy faolligini cheklovchi omil bo'lib xizmat qiladi. Muammo shundan iboratki, xotin-qizlarning siyosiy ishtirokini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'plab mamlakatlarda amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ularning samaradorligi hamma joyda bir xil emas. Ayrim hollarda rasmiy vakillik darajasi oshgan bo'lsa-da, real siyosiy ta'sir darajasi yetarli emasligi kuzatiladi. Bu esa xotin-qizlar faolligiga ta'sir etuvchi omillarni chuqurroq va kompleks yondashuv asosida o'rganishni talab etadi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, jamiyatning barqaror va inklyuziv rivojlanishi xotin-qizlarning siyosiy hayotdagi real va samarali ishtirokiga bevosita bog'liqdir. Gender tengligini ta'minlash faqat normativ hujjatlar qabul qilish bilan emas, balki ayollarning siyosiy faolligiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan tizimli mexanizmlarni ishlab chiqish bilan bog'liq. Tadqiqotning maqsadi – xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilish va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- 1) qizlar siyosiy faolligi tushunchasining nazariy asoslarini tahlil qilish;
- 2) ayollarning siyosiy ishtirokiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillarni tizimlashtirish;

- 3) institutsional mexanizmlarning ayollar faolligiga ta'sirini o'rganish;
- 4) xotin-qizlar siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi ko'p omilli tizim sifatida kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi hamda individual va institutsional omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ochib beriladi. Shuningdek, muallif tomonidan ayollar faolligiga ta'sir etuvchi omillar ijtimoiy (ta'lim, ijtimoiylashuv), iqtisodiy (bandlik, iqtisodiy mustaqillik), madaniy (gender stereotiplari, qadriyatlar tizimi) va institutsional (qonunchilik, siyosiy mexanizmlar) guruhlarga ajratilib, ularning tizimli ta'siri asoslab beriladi. Xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish masalasini faqat kvotalar yoki normativ hujjatlar doirasida hal etish mumkin emas. Bu jarayon ijtimoiy ong transformatsiyasi, ta'lim tizimini takomillashtirish, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish va fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash bilan uzviy bog'liq. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ham xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish bo'yicha yengillik va imtiyozlar ko'rsatib o'tilgan. Takidlab o'tsak "Mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishi hamda bandligini ta'minlashga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash, joylarda "Ayollar daftari"ni shakllantirish va unga kiritilgan xotin-qizlar muammolari, ehtiyojlari va qiziqishlarini tizimli o'rganish, tahlil qilish va hal etish borasidagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida, shuningdek, "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq" [3]. Shu bilan birga qonunda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy sohalarda bilim olish huquqlari haqida ham kengdan bayon etilgan. Shundagina

ayollarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki formal emas, balki real ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Shu bois mazkur tadqiqot xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks tahlil qilish orqali gender tengligi va demokratik rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy asosda yoritishga qaratilgan. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti jarayonida xotin-qizlarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi faolligi demokratik rivojlanishning muhim mezonlaridan biri sifatida qaraladi. Jamiyatning barqaror rivojlanishi fuqarolarning teng huquqli ishtirokiga asoslanadi va bunda ayollarning siyosiy jarayonlarda faol qatnashuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Xotin-qizlarning siyosiy faolligi faqatgina individual omillar bilan emas, balki kengroq ijtimoiy tizim – ta'lim tizimi, iqtisodiy sharoitlar, madaniy qadriyatlar va davlat siyosati bilan chambarchas bog'liq murakkab jarayon hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda sotsiologik tahlil, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlarni o'rganish jarayonida gender sotsiologiyasi, siyosiy sotsiologiya va rivojlanish sotsiologiyasi yo'nalishlaridagi ilmiy ishlar tahlil qilindi. Tadqiqotning nazariy asosini Anthony Giddens, Pierre Bourdieu, Amartya Sen va Martha Nussbaum kabi olimlarning ilmiy qarashlari tashkil etadi. Ularning tadqiqotlarida ijtimoiy institutlar, madaniy kapital, iqtisodiy imkoniyatlar va siyosiy madaniyat kabi omillarning jamiyatdagi ijtimoiy faollikka ta'siri atroflicha tahlil qilingan. Masalan, Anthony Giddens ta'limni shaxsning ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi asosiy institutlardan biri sifatida ta'riflaydi [4]. Iqtisodiy omillar ham ayollarning siyosiy faolligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Martha Nussbaum tomonidan ishlab chiqilgan "imkoniyatlar yondashuvi"ga ko'ra, insonning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi uning iqtisodiy imkoniyatlari va resurslarga kirish darajasi bilan bevosita bog'liq [5]. Madaniy stereotiplar ham ayollarning siyosiy faolligini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi. Ayrim jamiyatlarda an'anaviy gender rollari ayollarning siyosiy yetakchilikka intilishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Pierre Bourdieu o'zining

ijtimoiy kapital nazariyasida jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimi va madaniy stereotiplar shaxslarning imkoniyatlarini cheklashi mumkinligini ta'kidlaydi [6]. Shuningdek, davlat siyosati va qonunchilik tizimi ham ayollarning siyosiy faolligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ko'plab davlatlarda parlament va mahalliy kengashlarda ayollar ulushini oshirish maqsadida gender kvotalari joriy etilgan. Zamonaviy sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollarning siyosiy faolligini oshirish uchun fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati ham muhim ahamiyatga ega. Nodavlat tashkilotlar, jamoat birlashmalari va yoshlar tashkilotlari ayollarning liderlik ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim platforma vazifasini bajaradi. Shuningdek, siyosiy madaniyat darajasi ham ayollarning siyosiy jarayonlarda ishtirok etishiga ta'sir qiladi. Xotin-qizlar faolligini oshirish jarayonida ta'lim, iqtisodiy imkoniyatlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini birgalikda rivojlantirish muhim strategik ahamiyatga ega.

### **XULOSA**

Olingan natijalar xotin-qizlarning siyosiy faolligi ko'p omilli jarayon ekanligini ko'rsatadi. Ayollarning siyosiy faolligini oshirish uchun faqatgina qonunchilik islohotlari yetarli emas. Buning uchun ta'lim tizimi, ijtimoiy institutlar va madaniy qadriyatlar darajasida ham o'zgarishlar amalga oshirilishi zarur. Zamonaviy sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollarning siyosiy faolligini oshirish uchun fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati ham muhim ahamiyatga ega. Nodavlat tashkilotlar, jamoat birlashmalari va yoshlar tashkilotlari ayollarning liderlik ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim platforma vazifasini bajaradi. Shuningdek, siyosiy madaniyat darajasi ham ayollarning siyosiy jarayonlarda ishtirok etishiga ta'sir qiladi. Xotin-qizlar faolligini oshirish jarayonida ta'lim, iqtisodiy imkoniyatlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini birgalikda rivojlantirish muhim strategik ahamiyatga ega.

### **Adabiyotlar/ Литература/ References:**

1. Almond G., Verba S. The Civic Culture. (1963). Princeton University Press.
2. Bourdieu, P. (1986). The Forms of Capital. In J. Richardson (Ed.), Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. Greenwood.
3. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida-  
<https://lex.uz/docs/-5320582>
4. Giddens, A. (2006). Sociology (5th ed.). Polity Press.
5. Inglehart, R., & Norris, P. (2003). Rising Tide: Gender Equality and Cultural Change Around the World. Cambridge University Press.
6. Nussbaum, M. C. (2000). Women and Human Development: The Capabilities Approach. Cambridge University Press.
7. Sen A. Development as Freedom.